



Xalq so'zi

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 13 mart, № 53 (8676)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TADBIRKORLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA EKSPORTGA JALB ETISH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-mart kuni tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish va eksportga jalb etish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda davlatimiz rahbari 2023-yil 18-dekabrda bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida aytgan edi. Shundan so'ng ekspertlar ishtirokida tadbirkorlarning takliflari asosida yangi yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tahlillarga ko'ra, o'tgan yili eksportchi korxonalarga 665 milliard so'mlik yordam ko'rsatilib, 3 milliard 200 million dollarlik eksport ta'minlangan. Lekin ayrim tarmoq va hududlarda bu mablag'lardan samarali foydalanilmagan. Elektr texnikasi, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, zargarlik tarmoqlarida eksport o'rtacha ko'rsatkichlarga yetmagan. Uyushmalar tomonidan 2 ming 709 ta salohiyatli eksportchilar qamrab olinmagan, ularga haligacha biror yordam ko'rsatilmagan.

Shu bois hududlarda ishlab chiqarish, sanoat zonalari va eksport masalalarini yaxlit tizimda birlashtirish maqsad qilinmoqda. 12 ta tarmoq va sanoat uyushmasini Savdo-sanoat palatasi tizimiga o'tkazish taklif etilmoqda. Bu orqali loyiha tayyorlash va eksport tizimi davlatdan tadbirkorlar o'zini o'zi boshqaradigan tashkilotga o'tadi. Natijada ularning talab va istaklarini eshitish, muammolarini hal qilish osonlashadi, tadbirkorlarning o'zaro hamkorligi kuchayadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, sohadagi agentlik va jamg'armalar o'rni

Savdoni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etiladi. U chet eldan malakali dizayner, texnolog va marketologlarni jalb etib, milliy mahsulotlarni xalqaro talablarga moslashtirish, eksportchilarning yangi bozorlarga chiqishiga ko'maklashish, milliy brendlarni xorijda targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. Bu kompaniya tomonidan subsidiya, kompensatsiya va boshqa ko'maklar tadbirkorlarning barqarorlik reytingi asosida ajratiladi. Shuningdek, "O'zbekeksport" aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan aloqalari kuchaytiriladi. Barcha tumanda Tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash loyiha ofislari ish boshlaydi.

Prezidentimiz iqtisodiy islohotlardan asosiy maqsad tadbirkorlikni rivojlantirish ekanini ta'kidlab, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

Uyushmalarining vazifa va natijadorligini ko'rib chiqish, rahbar va xodimlar malakasini oshirish muhimligi qayd etildi. Asosiy ishni hududlarda tashkil etib, yangi loyihalar ishlab chiqish, tadbirkorlarni eksportga jalb qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mutasaddilar bu yil mahalliy sanoat eksporti hajmini 12 milliard dollarga yetkazish rejalari to'g'risida axborot berdi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasining QONUNI

Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiya qilish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 26-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2024-yil 9-fevralda ma'qullangan

Xalqaro mehnat tashkilotining Ish haqini himoya qilish to'g'risidagi 95-sonli Konvensiyasi (Jeneva, 1949-yil 1-iyul) ratifikatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 12-mart
№ O'RB-918

UY-JOYLAR QURILISHI SOHASIDAGI VAZIFALAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-mart kuni joriy yilda uy-joylar hamda "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida barcha hududda yangi uy-joylar barpo etilmoqda. Shu bilan birga, odamlarning xarid imkoniyatini kengaytirish uchun to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilindi. Unga muvofiq, o'tgan davrda barcha manbadan 100 trillion so'm mablag' yo'naltirildi. Bularning hisobiga hududlarda 6 mingta ko'p qavatli uy barpo etilib, 250 ming oila yangi boshpanali bo'ldi. Daromadi yuqori bo'lmagan 45 mingta oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovi uchun 2,4 trillion so'mlik subsidiyalari berildi.

Jumladan, o'tgan yili mamlakatimiz bo'yicha 85 mingta yoki 2022-yildagiga nisbatan 1,5 barobar ko'p xonadon qurildi. Aholiga 17 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi.

Aholi sonining o'sishini inobatga olib, bunday ishlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan, joriy yilgi dastur doirasida 100 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan.

Yig'ilishda shu boradagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Avvalo ularning sotuv narxi va sifatiga e'tibor qaratilib, nomutanosibliklar ko'rsatib o'tildi. Mutasaddilarga qurilish tannarxini pasaytirish va uylar sifatini

yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi. Shu maqsadda taklifni ko'paytirish uchun ko'p qavatli uy-joylar qurilishiga qo'shimcha yerlar auksionga chiqarilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari bu sohada aholi va quruvchilar uchun qator yangi imkoniyatlar berilishini ma'lum qildi.

Bu yil ipotekani moliyalashtirish uchun barcha manbadan 22,5 trillion so'm yo'naltirildi. Jumladan, ipoteka kreditlari uchun qariyb 10 trillion so'm, daromadi yuqori bo'lmagan 20 ming oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovini qoplash uchun 2,3 trillion so'm berildi.

Putrat tashkilotlarining aylanma mablag'ini ko'paytirish uchun 500 milliard so'm resurs yo'naltirildi. Bunda yillik 16 foiz stavkada 12 oylik imtiyozli davr bilan 18 oyga imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Bu maqsadlarga banklar ham o'z mablag'larini kiritadi.

Qurilish ishlari hamda aholining uy-joy sotib olishi uchun ham qo'shimcha yengilliklar yaratiladi. Xususan, endi 5 qavatli uylarni barpo etishga kamida "qoniqarli" va 9 qavatli uylarga "o'rta qoniqarli" reytingiga ega bo'lgan pudratchilar jalb qilinadi. Bu — qo'shimcha 2 mingga yaqin pudratchilarga yo'l ochib beradi.

Turarjoylar qurilishida "yashil" standart

joriy qilinadi. U asosida bunyod etiladigan uy uchun pudratchilarga kreditlar bir foiz past, ya'ni yillik 15 foiz stavkada beriladi.

Pudratchilarga kreditlar bo'yicha kafiliik berish va foiz xarajatini qisman qoplashga Tadbirkorlik kompaniyasi tomonidan 200 milliard so'm yo'naltirildi. Uy qurilishi uchun maxsus texnikalar importi bo'yicha berilgan bojxona imtiyozlari yana bir yilga uzaytirildi.

Bundan buyon ipoteka kreditlari bo'yicha garovga olinadigan uyni sug'urtalash talabi bekor qilinadi.

Kambag'allikdan chiqarish dasturiga kirgan va turarjoyi nochor ahvoldagi oilalarga, "mahalla yettilligi" tavsiyasi asosida, o'z hovlisida uy qurish va ta'mirlashga 120 million so'mgacha ipoteka krediti ajratilish yo'lga qo'yiladi. Bunda kreditning 15 foizi va dastlabki besh yilda foiz stavkasining 6 foizgacha bandi budjetdan qoplab beriladi.

Aholiga bu borada ko'maklashishda Iptekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi muhim o'rin tutadi. O'tgan uch yilda uning kredit portfeli 3 trillion so'mdan oshdi. Ushbu kompaniya ustav kapitalini 100 million dollarga yetkazish, xorijiy mablag'lar jalb etishni kengaytirish vazifasi belgilandi.

Yig'ilishda "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda hududlarda 38 ta massiv qurilishi boshlangan. Joriy yilda yana 17 ta massiv bunyod etish ko'zda tutilgan.

Lekin ayrim joylarda kechikish holatlari bor. Masalan, Surxondaryo, Andijon, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida qurilish ishlari ortda qolmoqda.

Shu bois har bir massiv kesimida manzilli ro'yxatni tasdiqlab, bunyodkorlik ishlarini jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Davlatimiz rahbari bunda asosiy talablar — sifat, muddat va tannarx ekanini ta'kidladi.

Ayrim noinsof quruvchilar xaridorlar ishonchini suiste'mol qilayotgani qayd etilar ekan, ulushdorlik asosida uy-joy barpo etishda aholini himoya qilish tizimini kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, yer auksionida qatnashadigan qurilish va pudrat tashkilotlarining moliyaviy salohiyatiga minimal talablar joriy qilinishi belgilandi.

Ba'zi hududlardagi eski uylar renovatsiya asosida yangilanib, odamlarga zamonaviy sharoitlar yaratilishi qayd etildi.

Bosh vazir o'rinnosari va viloyat hokimlari qurilish ishlarini tashkil qilish rejalari yuzasidan axborot berdi.

O'zA.

Hamkorlik

Delegatsiyamiz BMTning Ayollar holati bo'yicha komissiyasi sessiyasida qatnashmoqda

Oliy Majlis Senati Raisi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Nyu-York shahrida BMT Ayollar holati bo'yicha komissiyasining 68-sessiyasida ishtirok etmoqda.

Ma'lumot o'rinda ta'kidlash lozim, komissiya BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining ishchi organi bo'lib, xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish va ilgari surish bo'yicha xalqaro standartlarni hamda ularning bajarilishi yuzasidan takliflarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Ikki hafta davom etadigan tadbir doirasida BMT va fuqarolik jamiyati vakillari Pekin deklaratsiyasining amalga oshirilishi masalasini keng muhokama qiladi.

Sessiya qashshoqlikni bartaraf etish hamda institutlar salohiyati va moliyalashtirishni kuchaytirish orqali gender tenglikka erishish va xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirishga bag'ishlanadi.

Tashrif doirasida, shuningdek, BMT tuzilmalari rahbarlari, qator davlatlar Prezidentlari, hukumat rahbarlari va vazirlari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazilishi ham rejalashtirilgan.

Xususan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Shveysariya Konfederatsiyasi Prezidenti Viola Amerd bilan uchrashuv o'tkazdi.

Unda O'zbekiston va Shveysariya hamkorligini izchil kengaytirish, jumladan, siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va texnologik sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Aholi manfaatlarini kafolati va keng imkoniyatlar

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda o'tgan haftada mamlakatimiz hayotidagi muhim voqeiklarga, xususan, Prezidentimizning shu yil 7-martdagi "Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash, ezigulik va shukronalik timsoli bo'lgan Ramazon oyini yuqori saviyada o'tkazish bilan bog'liq vazifalarga alohida to'xtalib o'tildi.

Yurtimizda 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni keng nishonlangani, davlatimiz rahbarining sanaga bag'ishlangan tantanali marosimdagis natijada "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani qayd etilgani ta'kidlandi.

Shuningdek, aholi huquq va manfaatlarini kafolatlash, suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bir qator qonun loyihalari atroflicha muhokama qilindi.



Tovar va moliya bozorida sog'lom raqobat muhiti

Majlisda Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi kurashish, iste'molchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.



Shukuh

Xalqimiz ardog'idagi NAVRO'Z

— Xalqiy, eshitmadim demanglar, ertaga tong saharda ovuldagi Seytnazar oqsoqolning uyida sumalak pishirish boshlanadi. Bexabar qolmanglar, hammalaringiz boringlar-ey-ey! Namozshomda shovqin-suron tinmagan ovulning qoq o'rtasidagi tepalikda oyog'ini ola otning uzangisiga qo'yib, kekirdagini cho'zgancha jar solgan miqti Bahovuddin ovozini eshitmagan odam qolmadi.

qo'shiqlari, zavqli mutoyibalar avjiga chiqadi. Barcha shodon, yuz-ko'zlardan nur yog'adi. Qizginalar tolpopukdan jamalak taqib, bolakaylar tolxivichdan ot yasab, yayrashadi. Qozonda sumalak qaynaydi...

Qoraqalpog'iston ovullarida ana shunday sumalak pishirish marosimi Navro'z shodiyonalarining eng shukuhli, eng esda qolarli tadbirlaridan biri sanaladi. Tong sahardan boshlangan tadbir tun yarimdan oqqunga qadar davom etadi.

— Sumalak tayyor bo'ldi, — deydi bir payt katta yoshli momo kampirlardan biri. — Endi

qozonning qopqog'ini yopib qo'yib, tong otguncha kutamiz.

— Nega tonggacha kutamiz? — Momoning bu gaplariga qiziqsinib so'raydi qizlar, kelinchaklar.

— Uni ertalab qozonning qopqog'ini ochganda aytaman. Ungacha sabr qilib turasizlar, — deydi momo gapni qisqa qilib...

Azonda sumalak to'la qozonning qopqog'i ochildi. Shunda hamma qiziqib, oltinrang tusga kirgan taomga boqadi, uning xushbo'y hididan sarxush bo'lib tamshanadi. Hamma nima bo'lgani bilan qiziqadi.

— Mana buni qaranglar, — deydi momo. — Sumalakning sathiga Bibifotima onamiz qo'lining izi tushgan. Yoyilib o'sgan narvon terak singari barmoq izlari qolgan. Bu — to'g'chilik, obodchilik, baraka va tinchlik belgisi, farzandlarim.

— Ilohim, sumalak ustida qilingan niyatlar, aytilgan tilaklar qabul, elimiz baxtli, hayotimiz farovon bo'lsin, — qozon boshida duo qiladi momo. Hamma yaxshi tilaklarni, niyatlarni ko'ngliga joylab, yuziga fотиha tortadi...



Delegatsiyamiz BMTning Ayollar holati boʻyicha komissiyasi sessiyasida qatnashmoqda

 Ayni paytda Shveysariya bilan avtomobilsozlik, toʻqimachilik, farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, chorvachilik, infratuzilma sohaslarida 19 ta qoʻshma loyiha amalga oshirilmoqda. Muloqot chogʻida bu koʻrsatkichni bir necha barobar oshirish uchun ikkala davlatda ham katta salohiyat va keng imkoniyatlar mavjudligi taʼkidlandi.

Oʻzaro munosabatlarda parlamentlararo aloqalarning muhimligidan kelib chiqib, mazkur yoʻnalishdagi hamkorlik istiqbollari ham koʻrib chiqildi. Xususan, ixtisoslashtirilgan qoʻmitalar darajasida aloqalarni faollashtirish, ikki davlat parlamentlarida doʻstlik guruhlarini tashkil etish yuzasidan fikr almashildi.

Shuningdek, uchrashuv davomida bir qator sohalarda hamkorlikni rivojlantirish yuzasidan amaliy takliflar ham ilgari surildi. Xususan, gender tenglik sohasida hamkorlikni rivojlantirish, mazkur yoʻnalishda oʻzaro tajriba almashish muhimligi qayd etildi.

Orol dengizi mintaqasidagi vaziyatni yaxshilash yuzasidan ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni amalga oshirishda moliyaviy va texnik hamkorlikni kengaytirish masalalari ham tomonlarning diqqat markazida boʻldi.

Oʻz navbatida, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva anjuman doirasida Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashining Xotin-qizlar va bolalar ishlari

Senat qoʻmitasida

Telekommunikatsiya borasida qulayliklar yaratiladi

Oliy Majlis Senatining Axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni taʼminlash masalalari qoʻmitasi tomonidan tashkil etilgan yigʻilishda “Telekommunikatsiyalar toʻgʻrisida”gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Tadbira qoʻmita aʼzolari, mahalliy Kengashlar kotibiyat va doimiy komissiyalari rahbarlari hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari masʼullari, ekspertlar, OAV vakillari ishtirok etdi.

Taʼkidlanganidek, bugungi kunga qadar yangi qurilgan koʻp qavatli uylarning ayrimlarida tegishli infratuzilma koʻzda tutilmagani bois qayta qurish ishlari olib borishga toʻgʻri kelayotir. Bunday ovoragarchilikning oldini olish maqsadida bundan keyin bino va inshootlar qurilishda telekommunikatsiya infratuzilmasi majburiy boʻladi.

Jumladan, koʻp qavatli uylarda yashovchilar arizasi boʻlganda xizmat koʻrsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga binoda mavjud infratuzilma dan foydalanish imkoni yaratiladi. Qolaversa, operatorlarga telekommunikatsiya infratuzilmasi obyektlaridan birgalikda foydalanishga ruxsat beriladi. Ushbu holatlarga ahamiyat berilmasa, internet yoki shu kabi telekommunikatsiya tarmoqlarining montaj jarayonlari yagona standartlar asosida amalga oshirilmay,

Oʻrganish

Yer resurslaridan oqilona foydalanilyaptimi?

Respublikamizda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, sohada taʼsirchan nazoratni taʼminlash hamda yer resurslari, geodeziya,kartografiya va davlat kadastri sohasidagi munosabatlarni tartibga solish borasida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada Prezident Farmon va qarorlarida ham qishloq xoʻjaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga doir qator ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Xorazm viloyatida yer resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xoʻjaligi yoʻnalishida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar holatini oʻrganish boʻyicha tadbir tashkil etildi.

Unda Senatning Agrar va suv xoʻjaligi masalalari qoʻmitasi raisi B. Tojiyev, ishchi guruh aʼzolari, deputatlar, Yoshlar parlamenti vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Muhokama jarayonida taʼkidlanganidek, huquqni tasdiqlovchi hujjatlari toʻliq boʻlmagan, hujjatdagi va amaldagi maydoni bir-biridan farq qiladigan yerlarning mavjudligi ushbu yerlarning hisobini yuritish va yerdan samarali foydalanishga salbiy taʼsir etmoqda.

Shuningdek, tadbirda “yoshlar daftari”, “ayollar daftari”, “temir daftar”ga kiritilgan

boʻyicha milliy qoʻmitasi raisi oʻrinbosari, Butunxitoy ayollar federatsiyasi raisi oʻrinbosari Xuan Syaovey bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Unda mamlakatlarimiz oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, kambagʻallikni qisqartirish sohaslarida hamkorlikni kengaytirish masalalari koʻrib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Rais Si Zinpin oʻrtasidagi ochiq va ishonchli munosabatlar koʻp qirrali hamkorlikni kengaytirish va jipslashtirish uchun mustahkam zamin yaratgani alohida taʼkidlandi.

Tomonlar gender tenglik sohasida qoʻshma loyiha va dasturlarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashdilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Xotin-qizlar va oila masalalari qoʻmitasi, Senatning tegishli qoʻmitasi va Butunxitoy ayollar federatsiyasi oʻrtasida muntazam muloqotni yoʻlga qoʻyish, jumladan, Hamkorlik toʻgʻrisida memorandum imzolash taklifi ilgari surildi.

Shuningdek, ijtimoiy himoya va sugʻurta, aholiga manzilli yordam koʻrsatish sohasida oʻzaro tajriba almashish, ushbu yoʻnalishdagi qonunchilik faoliyatini oʻrganish boʻyicha hamkorlik qilishga kelishib olindi.

“Xalq soʻzi”.

 Mazkur qonun loyihasi bilan raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda mazkur tizim faoliyatini takomillashtirish maqsadida “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi Qonunda Raqobatni rivojlantirish va isteʼmolchilar huquqlarini himoya qilish qoʻmitasining nomini aniqlashtirish, davlat yordami berilishiga taalluqli loyihalarni ushbu qoʻmita bilan kelishish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, “Raqobat toʻgʻrisida”gi Qonunga oʻzgartirish kiritilib, unga muvofiq xoʻjalik yurituvchi subyekt qaysi faoliyat turiga asosan tabiiy monopoliya subyektlari jumlasiga kiritilsa, oʻsha uning asosiy faoliyat turi hisoblanishi belgilanmoqda.

Bundan tashqari, jazarol tizimini liberallashtirish maqsadida iqtisodiy jihatdan past taʼsir darajasiga ega boʻlgan holatlar boʻyicha birinchi marta raqobat sohasida huquqbuzarlik sodir etgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan moliyaviy sanksiyalar tarzidagi javobgarlik choralarini qoʻllamaslik koʻzda tutilmoqda.

Majlisda taʼkidlanganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi tovar va moliya bozorida sogʻlom raqobat muhitini taʼminlashga, xoʻjalik yurituvchi subyektda moliyaviy sanksiyalarni qoʻllashda adolatlilik prinsipiga rioya etilishiga xizmat qiladi.

Munozaralardan soʻng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Ayrim xizmatlar uchun toʻlovlar bekor qilinadi

Deputatlar suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasini ikkinchi oʻqishda muhokama qildi.

Qonun loyihasi bilan suv xoʻjaligi tashkilotlari tomonidan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga suv yetkazib berish xizmatlari uchun toʻlovlarni bekor qilish koʻzda tutilmoqda. Mazkur xarajatlarning oʻrni suv resurslaridan foydalanganlik uchun toʻlanadigan soliqlarning 40 foizini yoʻnaltirish hisobidan qoplanishi belgilanmoqda. Bu esa qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga yanada qulaylik yaratib, ularning moddiy manfaatdorligi ortishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, loyihada xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga qishloq xoʻjaligi ehtiyojlari uchun suv isteʼmolchilariga nisbatan suv olish limitlarini belgilash vakolati berilmoqda.

Bundan tashqari, Suv xoʻjaligi vazirligining tuman (Quvasoy shahar) irrigatsiya boʻlimlari hamda maxsus xizmatlari negizida “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari tashkil etilganligi munosabati bilan amaldagi ayrim qonunlarga oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Qonun loyihasi suv resurslarini samarali boshqarish, mazkur jarayonlarga xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining ishtirokini taʼminlash orqali yer va sugʻva doir munosabatlarning huquqiy asosini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kash etadi.

Mazkur hujjat deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Davlat nazorati mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda

Majlisda yoqilgʻi-energetika sohasida davlat nazorati mexanizmlari hamda ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Maʼlum qilinganidek, keyingi yillarda yoqilgʻi-energiya resurslaridan samarali foydalanish, ularni talon-toraj qilish

Aholi manfaatlarini kafolati va keng imkoniyatlar

holatlarining oldini olish va sohaga investitsiyalarni jalb qilish orqali bozor mexanizmlarini joriy etish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Qonun loyihasi bilan isteʼmol qilingan energiya resurslari uchun majburiy toʻlovlarni undirish haqida ijro hujjatini berish toʻgʻrisidagi ariza vakolatli organ yoki mansabdor shaxsga berilguniga qadar isteʼmolchining energiya resurslari tarmoqlaridan uzilganligini tasdiqlovchi hujjatni majburiy tartibda ilova qilishga doir talabni isteʼmolchi jismoniy shaxslarga nisbatan ham tatbiq etish koʻzda tutilmoqda.

Shuningdek, ijro ishini yuritishning soddalashtirilgan tartibini qazrdor jismoniy shaxslardan pochta xarajatlari uchun majburiy toʻlovlarni undirish toʻgʻrisidagi sud hujjatlariga nisbatan tatbiq qilish joriy etilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari irosini taʼminlash jarayonining soddalashtirilishiga hamda inson omili aralashuvining kamayishiga yoʻl ochadi. Shu bilan birga, isteʼmol qilingan yoqilgʻi-energiya resurslari uchun qazrdorlikni undirish toʻgʻrisidagi ijro hujjatlarining majburiy ijro etish tizimini takomillashtiradi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Boʻsh turgan davlat mulkidan samarali foydalanish lozim

“Davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ham muhokama markazida boʻldi.

Taʼkidlanganidek, bugungi kunda davlat mulki obyektlarini balansda saqlovchilar tomonidan ularni ijaraga berish tartibini buzish holatlari mavjudligi, jumladan, ijara shartnomasini tuzmasdan ijara berish, ijara berigan mulkning parametrlari va sonini kamaytirish, ijara toʻlovini yashirish kabi holatlar yuzaga kelmoqda.

Shundan kelib chiqib, qonun loyihasi bilan davlat mulkini ijaraga berish tartibiga rioya qilmaganlik, boʻsh turgan davlat mulkidan samarali foydalanish choralarini koʻrmaganlik, davlat mulkini ijaraga olgan tadbirkorlik subyektlari va boshqa shaxslarning huquqlarini buzganlik uchun maʼmuriy javobgarlik belgilanayotir.

Qonun loyihasi davlat mulkidan samarali foydalanilishini taʼminlashda muhim oʻrin tutib, ijraga oluvchi shaxslarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishiga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

Ilmiy darajalar berishda xolislik zarur

Majlisda koʻrib chiqilgan navbatdagi hujjat — “Ilm-fan va ilmiy faoliyat toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi boʻldi.

Mamlakatimizda ilm-fan rivojiga alohida ahamiyat qaratilib, ushbu masalaga davlat siyosati darajasida eʼtibor berilmoqda. Yillar davomida sohada toʻplanib qolgan muammolar oʻz yechimini topyapti. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistondan xalqaro reytinglarda tutgan oʻrni tobora koʻtarilib borayotgani buning yorqin dalilidir.

Shu bilan birga, oliy taʼlim muassasalari mustaqilligini kengaytirish, ular faoliyatida



davlat maʼmuriy boshqaruvini keskin kamaytirish hamda bu orqali oʻzgaruvchan mehnat bozori talablariga javob bera oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi davlat oliy taʼlim muassasalarini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur qonun loyihasi bilan, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat toʻgʻrisida”gi Qonunga ilmiy kengash aʼzolarining yarmidan koʻpi mazkur kengashni tuzgan taʼlim muassasasi (ilmiy tashkilot)da faoliyat yurituvchi olimlardan iborat boʻlishi haqidagi talabni bekor qilishni nazarda tutuvchi oʻzgartirishlar kiritilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi ilmiy tadqiqotlar bir muassasa monopoliyasiga aylanib qolishining oldini olishga, ilmiy darajalar beruvchi kengashlar ishini samarali tashkil qilishga, ularning tarkibiga taniqli mutaxassis, olimlarni keng jalb etgan holda ilmiy xolislikni taʼminlashga, tadqiqotlar sifatini koʻtarishga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan qabul qilindi.

Bojxona yuk deklaratsiyasini toʻldirishda tushunmovchiliklar bartaraf etiladi

“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuniga bojxona brokeri va xalqaro kuryerlik joʻnatmalarini yetkazib berish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda koʻrib chiqildi.

Majlisda bugungi kunda bojxona brokerlari faoliyati yoʻnalishida ayrim muammoli holatlar kuzatilayotgani qayd etildi. Xususan, deklaratsiyalash boʻyicha xizmat koʻrsatish bozorida naqd pul olish orqali “qora brokerlar” soni ortib, ushbu faoliyat yoʻnalishida “yashirin iqtisodiyot” ulushi tobora ortib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi bilan deklaratsiyalovchi shaxs oʻrtasida shartnoma imzolanmasligi va soliq organlarida hisobga olinmasligi ham ularning faoliyatida muammoli vaziyatlar kelib chiqishiga sabab boʻlmoqda.

Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi nomidan bojxona yoʻy deklaratsiyasini toʻldirib, bojxona organlariga taqdim etilgan deklaratsiyada aniqlangan xato va kamchiliklar boʻyicha tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisini javobgarlikka tortishda ham muammoli holatlar uchrayapti. Masalan, amaliyotda bojxona yuk deklaratsiyasini boshqa shaxs toʻldiradi, lekin deklaratsiyaning javobgar shaxs grafasida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisining nomi koʻrsatiladi va deklaratsiya uning kaliti bilan tasdiqlanadi. Natijada tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi oʻzi bilmagan holda boshqa shaxs tomonidan yoʻl qoʻyilgan xatolik uchun javobgar boʻlib qolmoqda.

Qonun loyihasi bilan “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari toʻgʻrisida”gi Qonunga bojxona brokeri va xalqaro kuryerlik joʻnatmalarini yetkazib berish faoliyatlarini vakolatli organi xabardor etish asosida tashkil qilish,

shuningdek, ushbu faoliyatlarini vakolatli organi xabardor etmasdan boshlaganlik uchun javobgarlik choralarini belgilashni nazarda tutuvchi qoʻshimchalar kiritish moʻljallanyapti.

Mazkur qonun loyihasi xalqaro kuryerlik joʻnatmalarini yetkazib berish va bojxona brokeri sifatida faoliyatni amalga oshirishda mavjud qoidabuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega boʻlib, loyiha deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda konseptual jihatdan qabul qilindi.

Axborot va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirilmoqda

Majlisda “Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi birinchi oʻqishda muhokama qilindi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish, kibermarkonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan ishonchli himoya qilinishini taʼminlash boʻyicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda “Elektron hukumat” axborot tizimi jamoatchilik bilan munosabatlarning tobora koʻproq jihatlarini, shuningdek, shaxs, jamiyat va davlat oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir vektorlarini qamrab olishda davom etyapti. Mobil- bank tizimlari esa fuqarolar va tashkilotlar hayotining turli sohalarga kirib, moliyaviy hamda boshqa xizmatlarni taqdim etishning yanada ilgʻor shakllari va usullariga aylantirildi.

Lekin shunga qaramay, raqamlashtirishning global kengayishi fonida kiberjinoiyatlar dinamikasida sezilarli oʻsish kuzatilib, respublika kibernakoni konturlarida, ayniqsa, kredit, moliyaviy hamda bank sektorlarida potensial xavflar va zaifliklar kuchaymoqda.

Mazkur qonun loyihasining asosiy maqsadi — Oʻzbekiston Respublikasi kibernakonda kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, qonun hujjatlarini “Kiberxavfsizlik toʻgʻrisida”gi Qonunga muvofiqqlashtirish hamda toʻlov tizimi operatorlari, kredit, toʻlov tashkilotlari, valyuta birjalari va kredit byurolarining axborot va kiberxavfsizligini taʼminlashdan iborat.

Qonun loyihasining qabul qilinishi kiberxavfsizlik sohasidagi meʼyoriy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, sohani huquqiy, tashkiliy, ilmiy-texnik va meʼyoriy-uslubiy taʼminot tizimini takomillashtirishga, ayni chogʻda, toʻlov tizimi operatorlari, kredit va toʻlov tashkilotlari, valyuta birjalari va kredit byurolarining axborot tizimlari hamda resurslarining yaxlitligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi oʻqishda qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

Samarali va natijador muloqot

Maʼlumki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Reglamentiga muvofiq, joriy yil 28-fevral — 2-mart kunlari deputatlarining saylov okruglarida oʻz saylovchilari bilan uchrashuvlari tashkil etilgan edi.

Muhokama

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining boʻlib oʻtgan navbatdagi yigʻilishida quyi palata faoliyatiga oid masalalar qatorida mazkur uchrashuvlar yakunlari toʻgʻrisida axborot berildi.

Maʼlum qilinganidek, xalq vakillari aholi xonadonlari, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha obyektlariga borib, fuqarolar, tadbirkorlar, jamoatchilik vakillari va yoshlar bilan yuzma-yuz muloqot qilishgan.

Uchrashuvlar davomida “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka, shu jumladan, yoshlarga yetkazilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti raisligida makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni taʼminlash,

investitsiya va eksport hajmini oshirish, sanoat, qishloq xoʻjaligi, uy-joy va kommunal xoʻjaligi, qurilish, transport, ekologiya hamda ijtimoiy sohalarda 2024-yilda amalga oshirilishi lozim boʻlgan asosiy ustuvor yoʻnalishlar muhokamasi yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishlarida belgilab berilgan har bir topshiriq va vazifalarning mazmuni, ahamiyati tushuntirilgan hamda bu borada jamoatchilik nazorati olib borilgan.

Xalq qabulxonalari bilan hamkorlikda fuqarolarning sayyor qabuli tashkil etilib, ularda aholi tomonidan koʻtarilayotgan muammolarni mahalliy ijro hokimiyati organlari bilan birgalikda joyida hal qilish choralari koʻrilgan. Shuningdek, qabullarga hududlardan Qonunchilik palatasiga murojaat yoʻllagan fuqarolar taklif

etilib, ularning masalalari ham joyida koʻrib chiqilgan.

Oʻrganilgan davomida deputatlar tomonidan jami 1 228 ta obyektg taʼshir buyurilgan, joylarda aholi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri muloqot oʻtkazilib, 400 ta uchrashuv uyushtirilgan. Ularda 8 ming 340 fuqaro, shu jumladan, 735 nafar tadbirkor bilan bevosita muloqotlar tashkil etilgan.

Shuningdek, mazkur uchrashuvlar davomida saylovchilar tomonidan joylarda odamlarni qiynab kelayotgan jami 627 ta masala koʻtarilgan.

Qayd etilganidek, deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati aholi va saylovchilarni oʻylantirayotgan ayrim masalalarni va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkonini bermoqda. Shunga koʻra, deputatlar tomonidan mahalliy ijro organlari bilan birgalikda koʻrilgan chora-tadbirlar natijasida yuzga yaqin masalalar ijobiy hal etilgan.

Aholining doimiy daromad manbaini yaratish yoʻnalishida olib borilgan ishlar natijasida 20 ga yaqin ishsiz fuqarolar bandligi

taʼminlanishiga, tibbiy-ijtimoiy himoyaga muhtoj 16 nafar fuqaroga esa imtiyozli davolanish uchun order hamda yashash sharoitlarini yaxshilash maqsadida moddiy yordam olishga koʻmaklashilgan.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanish uchun imkoniyat yaratishda bir qator fuqarolarga subsidiya va kredit mablagʻlari ajratilishiga koʻmaklashilgan. Misol uchun, Navbahor tumanidagi “Qizilrabot” MFYda yashovchi fuqaro F. Sharopovga tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishi uchun imtiyozli kredit, Muzrabot tumanidagi “Nurli hayot” MFYda yashovchi fuqaro M. Mamadaliyevaga taʼlim krediti ajratib berilgan.

Bundan tashqari, joylarda odamlarni oʻylantirib kelayotgan bir qator ijtimoiy masalalar deputatlarning saʼy-harakatlari bilan joyida hal etilishiga erishilgan. Respublika darajasidagi ayrim masalalar esa alohida nazoratga olingan.

Oʻrganishlar yakunidan kelib chiqib, jamoatchilik diqqat

markazida turgan dolzarb masalalarni muhokama qilish hamda ularga ijro hokimiyatining eʼtiborini qaratgan holda hal etish maqsadida parlament nazorati tadbirlarini amalga oshirish rejalashtirildi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar fraksiyalari tomonidan saylov okruglaridagi uchrashuvlar davomida aniqlangan muammo hamda kamchiliklarni dasturiy maqsad va vazifalardan kelib chiqib, parlament nazoratining boshqa shakllaridan ham foydalangan holda hal etish boʻyicha qator chora-tadbirlar belgilab olindi. Qolaversa, qoʻmitalar joylarda aholi tomonidan koʻtarilgan masalalarni chuqur oʻrgangan holda, tegishli qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish yuzasidan qonunchilik takliflarini ishlab chiqish hamda ularni qonun ijodkorligi jarayonida aks ettirishi nazarda tutildi.

Kengash yigʻilishida koʻrib chiqilgan ushbu masala yuzasidan tegishli qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.



Xalqimiz ardog'idagi NAVRO'Z

Asrlar osha avlodidan-avlodga o'tib kelayotgan xalqimizning bu ulug' ayyomi sobiq ittifoq davrida har tomonlama ta'na-malomatlarga duchor etildi. Unga "eskilik sarqiti" tamg'asi yopishtirildi.

O'tgan asrning 80-yillarida men gazetada ishlar edim.

— Yuqoridan topshiriq bo'ldi, — dedi kunlardan birida bosh muharrir hammamizni yig'ib. — Markazqo'mning mafkura bo'yicha kotibi majlis qilib, barcha ommaviy axborot vositalari, radio-televidekiye, gazeta-jumallarga Navro'z bayrami haqida biror narsa e'lon qilmaslik to'g'risida ko'rsatma berdi. Material berilgan taqdirda ham uni Navro'z emas, Navbahor deb atash bo'yicha topshiriq bor...

Vatanimiz mustaqillikka erishgunga qadar Navro'z diniy bayram, qoloqlik belgisi, degan g'arazli maqsadlar bilan qatag'on qilindi, taqqlanib kelindi.

Shukrki, bu dilxiraliklarning hammasi bugun chirigan xazonlar kabi o'tmishda qoldi, tarixga singib ketdi. Xalqimiz tabiatning uyg'onishi, hamal kirishi, yil boshi, ya'ni yangi kunning boshlanishi sifatida Navro'z bayramini katta xursandchilik bilan nishonlamoqda. Ushbu ayyomda turli ko'ngilochar o'yinlar, ko'pkari va sayillarning o'tkazilishi uning quvonchini, shukuhini yanada oshiradi.

Keyingi yillarda Navro'z yangicha mazmun bilan boyib bormoqda. Uning ifori yurtimizning har bir go'shasida odamlar kayfiyatida,



obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarida, xayr-saxovat tadbirlarida namoyon bo'ladi.

Qoraqalpog'istonda bu yil ham Navro'z bayrami g'oyat ko'tarinki kayfiyatda, baland ruhda nishonlanmoqda. Shaharu qishloqlarda, ovullarda uning shukuhi kezb yuribdi. Xonadonlarda sumalaklar, ko'ksomsalar tayyorlanmoqda. Dasturxonlar o'rtasini bug'doy yoki arpadan undirilgan mayssa bezab turibdi. Bug'doy, arpa, loviya, mosh, guruch, jo'xori, no'xat singari dukkakli donlardan go'ja tayyorlanib, qo'ni-qo'shnilarga tarqatilmoqda.

Umar Xayyom o'zining "Navro'znoma" asarida: "Har kishiki, Navro'z bayramini vaqtixushlikda o'tkazsa, kelgusi yil boshiga qadar uning hayoti shodu xurramlik bilan o'tadi", deb yozadi. Darhaqiqat, bu yilgi Navro'zimizning ko'tarinki ruhi yilimizning

yanada barakali, xayrli bo'lishidan darak berayotgandek.

Navro'z — xalqimizning bag'rikengligi, saxovatpeshaligi, mardu maydonligi, mehribonligini namoyon etadigan milliy bayramimiz. Bu kunda qizlar, kelinchaklar, keksayu yosh eng chiroyli liboslarini kiyishadi, shirin-shirin taomlar tayyorlashib, qo'ni-qo'shniga tarqatishadi, bir-birlariga ehsolon qilishadi. Navro'z kuni yomonlar — yaxshi, xasislar — saxiy, ko'rkislar — chiroyli, go'zallar yanada go'zallashib ketganday bo'ladi.

Navro'zni ozodlik va erkinlik kuni, desa ham bo'ladi. Chunki o'sha kuni hamma g'am-tashvishlar unut, ko'ngil kundalik tashvish va g'uborlardan ozod bo'ladi. G'am-qayg'ular unutiladi. Odobsizlik, o'rik, zo'rluk, o'tirik-o'ksiklikka chek qo'yiladi.

Navro'z — azaldan tinchlik kuni. Bu kunda o'pka-ginalarga barham berilgan. Hatto mamlakatlal o'rtasidagi urush-janjallar to'xtatilgan. Qaysi millat vakili bo'lishiga qaramasdan, har bir kishi bir-biriga mehr-muruvvat ko'rsatadi, bayramda qatnashib, o'z hunarini, iqtidorini tomoshabinlarga namoyish etadi.

Bugun Navro'z milliy qadriyatlarimiz qatorida rasmiy ravishda nishonlanayotganiga, milliy bayram sifatida qadr topganiga quvonamiz. U hayotimizdan, turmush tarzimizdan mustahkam o'rin olganiga shukr qilamiz.

Bugun erkin va ozod xalq har qanday xayrli ishlarni amalga oshiradigan zamon keldi. Prezidentimiz Qoraqalpog'istonga tashrifi chog'ida xalq bilan uchrashib, ularni rag'batlantirishi, yangi maqsad-rejalar sari boshlashi, Orol dengizining suvi qurigan sathidagi ulkan sahroni o'rmonzorga aylantirish maqsadida boshlagan sa'y-harakati, Mo'ynoqdagi bunyodkorliklar, shahar va ovullarning qaytdan obodonlashishi, chiroy ochishi hammaida ertangi kunga umid uyg'otdi. Shu bois Navro'z bayrami arafasida har bir kishi o'zi yashab turgan xonadonini yanada ko'rkamlashtirib, gulu gulzorlarga burkashga harakat qilmoqda, mahallasini, Vatanimizni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Bemorlar holidan xabar olinib, kam ta'minlangan oilalarga moddiy ko'mak berilmoqda. Sayilgohlarda milliy taomlar pishirilib, turli tomoshalar, ko'pkari, polvonlar kurashi, milliy musobaqalar o'tkazilmoqda. Kelin tushiruv, beshik to'yi, tetapoya bo'lgan go'daklarning oyog'ini yechish, sunnat to'yi va boshqa marosimlar tashkil etilmoqda.

Hamal — yangi kun, uyg'onish fasli xalqimizga qut-baraka, dasturxoniga to'kinlik, mo'l rizqi-ro'z olib kelishi aniq. Dehqonning biri ming bo'lib, hosiliga baraka bersa, xalqimiz dasturxoniga to'lib-toshadi. Sharqona yangi yilga qutlug' qadam qo'yayotgan xalqimizning kelajagi yanada oydin va obod bo'lishiga ishonamiz. Ilohim, bu yilgi Navro'z ham xush kelsin, xalqimizning barcha orzu-maqsadlari ro'yobga chiqib, muvaffaqiyatlari bardavom bo'lsin!

Joldasbay NURULLAYEV,
Qoraqalpog'iston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist.

AYOL — JAMIYAT FAROVONLIGI TIMSOLI

ISHBILARMONLAR SAFIDA EKANIMDAN QUVONAMAN

Prezidentimiz nutqini tinglab, o'zim uchun muhim bo'lgan rejalarni belgilab oldim. Chunki unda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash xususida gap borgan.



Bunday e'tibor va g'amxo'rliklar tufayli 2019-yilda "To'lan fayz" mas'uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etgan edim. O'shanda menga "Ayol boshingiz bilan qiyinalib qolasiz-ku" deguvchilar ham bo'ldi. Ammo bunday gaplar meni bu yo'ldan qaytara olmadi. Chunki yurtimizda ishbilarmon ayollarga yaratilayotgan imtiyoz va yengilliklardan yaxshi xabardorman. Hozirgi kunda korxonamizda 50 dan ziyod ishchilar samarali mehnat qilib kelayotir, bir oyda 60 turdan iborat 60 ming dona

bosh kiyim ishlab chiqariladi. Mahsulotimiz sifatli, bejirim, ayniqsa, tabiiy xomashyodan tayyorlanganligi bois xaridorgir. Shu sababli 2023-yilda Rossiya, Qirg'iziston, Qozog'iston va Tojikistonga eksportni amalga oshirdik. Kelgusi rejalарimiz katta. Qo'shimcha texnologiyalarni o'rnatish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, mahsulot turini ko'paytirish, eksport salohiyatini kengaytirish borasida istiqbolli loyihalar ishlab chiqqanmiz.

Nutqda aytilganidek, so'nggi besh yil ichida O'zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki baravar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'yg'an tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Ana shunday fidoyi va jonkuyar, o'z ishini ustasi bo'lgan ayollar safida ekanimdan juda quvonaman.

Feruzaxon ABDUG'OFUROVA,
Buloqboshi tumanidagi "To'lan fayz"
mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori.
Andijon viloyati

MA'RIFATLI ONA — OILA BAXTI

Vatanimiz taraqqiyotida, jamiyat rivojida xotin-qizlarning o'rni va roli tobora ortib boryapti. Ayniqsa, ular hayotimizning barcha jabhasida faol ishtirokchiga aylanmoqda.



Shuni alohida ta'kidlash joizki, oilani mustahkam ushlab turish, kelajak avlodni benuqson tarbiyalash bevosita onalarimizga bog'liq ekanligi barchamizga ayon. Shunday ekan, biz avvalo, ma'nan yetuk, aqlan sog'lom, fikratiyu siyratida dadillik ufurib turadigan, qat'iyyatli va sabr-matонатli qizlarimizni tarbiya qilmog'imiz lozim. Muhimi, ayni yo'nalishdagi hayotbaxsh islohotlar tufayli milliy qadriyatlarimiz jahon andozalari darajasida

takomillashib borayotir.

Bugun tabarruk yoshda bo'l-sam-da, qadrdon jamoam — Farg'ona davlat universitetida ilmiy faoliyatimni davom ettirmoqdaman. Shu bilan birga, turli ilmiy kengashlar a'zosi, Gender tenglik tadqiqotlar markazi rahbari sifatida professor-o'qituvchilar, talabalarimiz ilmiy faoliyatini rag'batlantirish, o'ildada, jamiyatda o'z o'niga ega bo'lishlari va manfaatlari himoya qilinishiga erishmoqdami. Chunki ma'rifatlil ayol nafaqat oila, balki jamiyatning ham baxtidir.

Prezidentimizning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida qayd etilganidek, qizlarimiz o'rtasida zamonaviy

bilim va kasb-hunarlariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida ta'lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya'ni qariyb yarmini qizlar tashkil etadi. Alohida ta'kid shuki, keyingi yillarda yurtimizda ilm-fan va ta'lim, xususan, oliy ta'lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli bu yo'nalishda katta natijalarga erishilmoqda.

Biz ayollar bilim va tajribalarimizni yosh avlodga o'rgatish yo'lida astoydil mehnat qilishdan aslo charchamaymiz. Zero, farzandlar tarbiyasida keksa avlod vakillarining o'rni nihoyatda katta.

Turg'unoy EGAMBERDIYEVA,
Farg'ona davlat universiteti professori,
"Mehnat shuhrati" ordeni sovrindori.

ISTE'DODLI YOSHLAR KASHF ETILMOQDA

Yoshlik — g'ayrat va shijoat fasli. Kreativ fikrlar, dunyoviy kashfiyotlarga asos bo'luvchi alanga uchqunlari insonning aynan shu faslida tug'yon uradi, jilvakor mavjlanadi. Yoshlik qudratini yaratuvchilik tomon burish, to'g'ri yo'nalirish, qiziqishlarini sayqallash hamisha dolzarb masala.

■ Mahorat darslari

Yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi teranligi, madaniy yuksakligi yurt rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois ham Madaniyat vazirligi o'ndan ortiq va ijodkor yigit-qizlarni kashf etishda yangicha yo'ldan bormoqda. Ya'ni joriy yilning yanvaridan madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Bahodir Ahmedov boshchiligidagi O'zbekiston xalq artisti, san'at arbobi darajasidagi ekspertlar guruhlari shakllantirilib, har bir viloyat, tuman, shahar markazlaridan tortib, eng chekka qishloqlarga yosh

iqtidorlarni kashf etish bo'yicha safarlar uyushtirilmoqda. Maqsad — an'anaviy xonandalik, estrada xonandaligi, cholg'u ijrochiligi singari o'ndan ortiq yo'nalishlarda o'z intilishlarini sinab ko'rmoqchi bo'lgan iste'dodli yoshlarni tumanlar, so'ng shaharlar va viloyatlar, respublika bosqichlarida saralash.

Shunday qilib ta'bir joiz bo'lsa, qayiqalar daryolarga emas, daryolar qayiqalar tomon yaqinlashdi, kelajak ummoniga ko'zlarini tikkan intiluvchan yoshlar oppoq orzuli oq kemalarda

yorug' manzillar tomon suzdilar.

Dastlabki bosqichlarda 500 dan ziyod ishtirokchilar o'z iste'dodlarini namoyish etgan bo'lsa, ularning 200 nafari respublika bosqichiga chiqdi. Ular yana saralanib, 74 nafari ekspertlar guruhlari a'zolari bo'lmish san'at arbobi yoki xalq artistlariga "Ustoz — shogird" an'asini bo'yicha birkirildi. Ya'ni yosh iqtidorlarga soha sirlarini o'rganishdek xazinaga eshik ochib berildi.

Kelgusida Madaniyat vazirligi rahbariyati ko'magida aynan shu iste'dodlardan "Ijodkor yoshlar ansambli" tuzish, iqtidorlarning malakalarini oshirish, yurtimizda bo'ladigan nufuzli milliy bayramlarda, xalq sayillarida, xorijiy o'lkalarda uyushtiriladigan "O'zbekiston madaniyati kunlari"da ularning munosib ishtirokini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Darvoqe, saralanganlar o'rtasida mahorat darslari o'tkazish boshlab yuborildi. Yaqinda O'zbekiston xalq artistlari Abdughoshim Ismoilov va Abdulahad Abdurashidov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Abdurhamon Xoltojiev mas'ul etib belgilangan 15 nafar ijodkor an'anaviy cholg'u ijrochiligi yo'nalishida dastlabki mahorat saboqlarini oldilar. Mazkur jarayon "Madaniyat va ma'rifat" telekanalida namoyish qilindi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Elmurod Islomov guruhidagi 40 nafar doirachi ham bunday dars sirlaridan voqif bo'lishdi. Bu iqtidorlarning ham ijrolari yaqin kunlarda telekanalda namoyish qilinadi.

Farrux YUNUSOV,
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi bo'lim boshlig'i.



PARALIMPIADA CHO'QQISINI ZABT ETMOQCHIMAN

Yurtimizda jismoniy imkoniyati cheklangan kishilar uchun katta g'amxo'rliklar ko'rsatilmoqda. Bunday e'tibor tufayli men ham sportda o'z o'rnimni topdim. G'oliblik shohsupasiga ko'tarildim.

Davlatimiz rahbarining Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda "Bolalarimizni bilim va aqlli, oqni qoradan ajrata oladigan, el-yurtimizga sodiq, hayoli va iboli, mustahkam irodali insonlar etib tarbiyalash uchun barchamiz birgalikda harakat qilaylik" degan so'zlarini eshitib, nihoyatda to'liqlandim.

O'zim 2015-yilda ilk marotaba Toshkent shahrida o'tkazilgan musobaqada para yugurish sport turi bo'yicha ishtirok etib, g'olib bo'lgandim. Lekin bu natijadan ko'nglim to'lmadi. Shu bois dadamdan meni O'zbekiston para yengil atletika terma jamoasi bosh murabbiyi Sardor Abduholiqovning yoniga olib borishini iltimos qildim.

Sardor Abduholiqov men bilan suhbatlashib, "Agar shu shijoatingni bo'shashtirmasang, albatta chempion bo'lasan" degandi. Ustozim adashmagan ekan, 2016-yildan buyon mamlakatimiz va xalqaro miqyosdagi ko'plab musobaqalarda para yengil atletikaning uzunlikka sakrash turi bo'yicha ishtirok etib, g'olib va sovrindorlar qatoridan o'rin egallab kelayapman.

Jumladan, "Tokio — 2020" yozgi Paralimpiya o'yinlarining kumush, "Xanchjou — 2022" Para Osiyo o'yinlarining oltin medalini qo'lga kiritdim. O'tgan yili Parij shahrida o'tkazilgan yengil atletika bo'yicha jahon chempionatida g'olib bo'ldim. 2023-yilda Osiyo qit'asining "Eng yaxshi ayol para atleti" deya e'tirof etildim.

Men uchun 2021-yilda Yaponiyada o'tkazilgan "Tokio — 2020" yozgi Paralimpiya o'yinlari katta ahamiyatga ega. Bu musobaqada yurtimizga oltin medal bilan qaytishni juda istagan edim. Yakunda kumush medal sohibasiga aylanganman. Bu ham yaxshi natija, lekin mening qalbmida "albatta, Paralimpiya chempioni bo'lishim kerak" degan maqsad o'rmashib qolgan. Ana shu maqsad, xohish mashg'ulotlarda menga yanada kuch, shijoat bag'ishlaydi.

Nasib etsa, kelgusi Paralimpiada musobaqalarida g'olib bo'lib, albatta, yurtimiz bayrog'ini baland ko'taraman.

Asila MIRZAYOROVA,
"Tokio-2020" yozgi Paralimpiya o'yinlarining
kumush medali sohibasi.
Qarshi shahri

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 142.15 736 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 00.30 1 2 3 4 5 6